

SHAHZOD ERGASHALIYEV

UFOQQA TUTASH YO'L



HIKOYALAR

KITOBIM



BIRINCHI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

SHAHZOD ERGASHALIYEV

Ufqqa Tutash Yo'l

Hikoyalar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Muhiddin ABDUSAMAD

Mas'ul muharrir:
Nurilla CHORI

Ushbu kitobchadan o'rin olgan hikoyalarda insonni faqatgina go'zal fazilatlar ulug'lab turishi ifodalangan. Muallif o'zi ko'rgan-bilgan voqea-hodisalarni o'quvchining ko'z o'ngida jonlantiradi. Bunda orzu bor, umid bor. Eng muhimi, o'quvchiga yosh ijodkorning samimiy va beg'ubor nigohi sezilib turadi. Barchamizga shu toza nigoh muborak bo'lsin.

Ushbu kitob 2020-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6780-7-1

© Sh. Ergashaliyev, 2020
© "Adabiyot", 2020

UFQ YO'LINING YO'LCHISI

Shahzod Ergashaliyevning zuvalasida yozuvchilik bor ekan, yozuvchining nigohi ham. Aslida iste'dodning birlamchi unsuri shular. Bilim, tajriba, mashq, izlanish ularni rivojlantirib, ijodkorni kashf etadi va shaxsini yaratadi. Demak, Shahzodbek keyingi aytilgan jarayonga bel bog'lab jiddu jahd qilmog'i lozim. Avvallari shoir ko'payib ketgani haqida tinmay gapirib, kulgi yasardik. Endi esa nosirlar ham kam emas. Yaxshilikka bo'lsin. Har holda, tanlash imkoniyatimiz kengayadi, balki, yaxshi asarlar ham ko'payar. Shu ma'noda, Shahzodning qalamidan umid qilsa bo'ladi. Zero, ilk kitobini "Ufqqa tutash yo'l" deb ataganining o'zi zuvalasining jo'va kutayotgandir. "Asl chang, asl g'ubor insonning qalbi-da bo'lmaydimi?" – deydi u bir hikoyasida va odamning tuproqdan yaralganini aytib, go'zal ma'nolar chiqaradi. Yosh nosir tabiat tasvirlarida shoirona nigohini namoyon qiladi. Bu ham qalamkash uchun muhim – xarakter yaratishda asqotadi.

Yoshlarni maqtash shart emas deb o'ylayman. Chunki Adabiyot olami cheksiz-chegarasiz, uning mutloq sohibi ham yo'q. Ufq-

ga tutash yo'l bor, ammo hali hech kim unga yetmagan va yetolmaydi ham. Muhimi, yo'lga chiqish, o'z so'zini izlash.

Shahzodbek! Yo'lchilik, so'zga sohiblik muborak!

Nabi JALOLIDDIN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
yozuvchi.

UFQQA TUTASH YO'L

Mashina tuproq yo'l bo'ylab asta yurib boradi. G'ildiraklar har gal chuqurga tushganda ohista silkinib qo'yar, men esa oynadan mo'ralagancha uning tirqishidan kirayotgan kechagina yog'gan yomg'ir hidi aralash namxush tuproq iforidan to'yib-to'yib nafas olaman. Dadam menga old oynadan goh-goh ko'z tashlaydi, o'zim buni sezib tursam ham, parvo qilmayman. To'g'ri, men dadamni yaxshi ko'raman, lekin bobom ham mening bobom-da! Uning ko'ksiga tushgan oqimtir soqoli, tuki uzun, qalin qoshlari va hatto nursiz, ammo mehr to'la boqadigan ko'zlari ham o'ziga shunday yarashib turadiki, hech o'ylanmay, "bu mening, o'zimning bobom!" deb butun olamga jar solgim keladi.

O'zi bu yerga kelganimga unchalik ko'p bo'lmagan, ta'til vaqtida qishloqda havo almashtirib kelasan deb, dadam tashlab ketgandi. Endi esa qaytib ketyapmiz, ketyapmiz-u, mening yarim ko'nglim bobom va buvim bilan shu yerda – bepoyon dalalarda qolib ketyotgandek tuyulmoqda. Yaxshi insonlarning umri qisqa bo'ladi deyishadi. Yo'q, ular bilan vaqt qanday o'tganini bilmay qolarkansan,

xolos. Bu yerda ikki oy yashagan bo'lsam ham, ikki kun o'tgandek tuyuldi men uchun. Shuncha vaqt qanday o'tdi, qachon bunga ulgurdi, sezmay ham qoldim.

Yurak-yuragim bilan o'sha dag'al, ammo tafti iliq qo'llarga, buvimning ro'moli ostidan ozgina chiqib turadigan oq sochlaridagi qatiq hidiga bog'lanib qolgan ekanman. Menimcha, ular ham meni yaxshi ko'rishadi. Bo'lmasa, darvoza yonida qo'llarini duoga ochgancha ortimizdan termulib qolisharmidi.

* * *

Oyim to'g'ri aytgan ekan. Bo'yim ancha cho'zilib, har narsaga aqlim yetib qolgan ko'rinadi. Axir, men ham yosh bola emas, yettinchi "a"da o'qiydigan Sarvar bo'laman! Shu paytgacha har gal qishloqqa kelganimda ko'p narsaga e'tibor bermas ekanman. Bu safar ba'zilarini anglab yetgandek bo'ldim. Odamlar baxt qidirib butun borliqni baland binolar to'sib qo'ygan shaharlarga ketib qolishadi. Ammo aslida haqiqiy mo'jizadan quruq qolayotganliklarini o'zlari ham sezishmaydi. Hech chegarasini ko'z ilg'amaydigan biror bepoyon yaylovdan turib quyosh botishini tomosha qilib ko'rganmisiz? Yoki tong

qorong'usida uyg'onib, baland bir tepalikka o'tirgancha cheksizlikda qoramtir tusda ko'rinib turgan viqorli tog'lar bag'ridagi alvon lolaqizg'aldoqlarning nafis barglarini siypalashga mehr bilan oshiqayotgan quyoshning ko'tarilishini-chi? Yo'q-yo'q, siz buni qayerdan ham bilardingiz. Axir, o'sha ajib mo'jiza – yashil o'tloqlar ustiga yotqizilgan uzun asfalt yo'llar ustidan g'izillab o'tayotgan temir aravalardan boshqasi ko'rinmaydi-ku sizga. Quyosh botishini esa hech qachon ko'ra olmay-siz! Atrofga alanglaysiz-u, har tomoningizdan qurshab turgan baland imoratlarga ko'zingiz qadalaveradi. Balki, uni kinoda ko'rgandirsiz? Lekin unisi haqiqat emas. Bobom aytgan edi, kinolarda quyosh chiqishini botishi o'rnida suratga olishar ekan. Nega deganda, shomga yaqin atrof qorong'ulashadi, osmon qizaradi. Bu holni qandaydir kameralar ilg'ay olmaydi, uni faqat o'z ko'zingiz bilan ko'ribgina his qila olasiz. Men buni bir necha bor sinab ko'rdim. O'sha vaqtda qulog'ingiz ostida qandaydir ajib kuy yangray boshlaydi va negadir jilmayasiz. Ko'z oldingizda esa qadim tarixning buyuk siymolari bir-bir gavdalana boshlaydi. Dovrug'i dunyoni titratgan mardlarning g'urur-iftixor to'la hayqiriqlari-yu, olg'a boshlashlaridan so'ng dengizdek mavjlanib turgan

minglab askarlarning shon-u sharafiga burkangan qiyqiriqlari quloqqa chalingandek tuyuladi. Ana shunda siz ham beixtiyor o'rninizdan turasiz-da, vatan uchun jonini tikkan o'g'lonlardek yuragingiz faxr, sadoqat kabi tuyg'ularga to'lib, hayqirib yuborganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz. Xo'sh, o'sha tog'lar ortida – siz yashayotgan makonlarda ham shundaymi? Agar javobingiz “ha” bo'lsa, siz baxtli ekansiz!

* * *

Tuproq yo'l ufqqa tomon uzayib boradi. Mashina hamon chayqala-chayqala ildamlaydi. Men esa oynadan boshimni chiqarib, ortga qarayman. Uzoqda, darvoza yonidagi bahaybat chinor tagida bobom hamon qorayib ko'rinadi.

– Bo'ldi, oynani yop, Sarvar, – deydi dadam yo'ldan ko'z uzmay.

Men tag'in parvo qilmayman.

– Chang kiradi, yopsang-chi!

Sekin ichkari kiranman-u, aytganini qilaman. Asl chang, asl g'ubor insonning qalbi-da bo'lmaydimi? Axir, Alloh hammani shu tuproqdan yaratmadimi? Shunday ekan, nega inson o'zligidan hazar qiladi? Haqiqiy inson

egniga chang yuqishidan cho'chib, bir chetda iymanib turgan oliftami yoki tuproqni jondek sevib, undan qochmagan, peshonasi-dan tirqirab ter oqqanda rohat oladigan dehqonmi? Shu tob negadir bobom ko'z oldimga keladi.

U bir chekkaga muk tushgancha, doim beliga osib yuradigan burama sopli Chust pichog'ini hafsala bilan qayrab, menga hikoyaga o'xshash narsa aytib o'tirardi:

– Bir kishiga Jannat eshiklari ochib qo'yilibdi. Qarasa, u yerda barcha narsa muhayyo ekan. So'lim bog'lar, zilol suvlar, eng shirin mevalar, qo'yki, nima istasa, hammasini topibdi. Shunda ham Alloh "Ko'ngling nima tusaydi?" – deb so'rabdi. – Bobom shu joyiga kelganda negadir to'xtadi-da, menga tikilib qaradi. Uning gaplarini jon qulog'im bilan tinglab o'tirganimni ko'rgach, tag'in o'sha ohangda davom etdi. – Boyagi kishi o'ylab o'tirmay Tangridan yer so'rabdi.

– Yerni nima qiladi? – dedim bu hikoyani bobomning o'zidan yuz martalab eshitgan bo'lsam ham, qiziqib.

– Nima qilardi, dehqonchilik qiladi, ekin ekadi-da!

– Axir, hamma narsa muhayyo edi dedingiz-ku, tayyorini so'ray qolmaydimi?

Bobom negadir jim qoldi. Boshidan do'pisini olib, tomirlari bo'rtib chiqqan chillakdek ingichka qo'llari bilan tepakal boshini erinmay siladi.

– O'z mehnating bilan erishganing boshqacha bo'ladi baribir. Bir kun kelib, mehnatlaring samarasidan birov bahramand bo'lib, haqqingga duo qilishidan ortiq baxt bor ekanmi?

– Unday bo'lsa, o'zingiz nimani so'raysiz Allohdan?

– Qaydam, – bobom kuldi, – o'sha kunlarga yetkazsin hammamizni. Alloh rahmdil, mehribon.

Gapga bir chekkada guruch tozalab o'tirgan buvim aralashdi:

– Bobong ham o'sha kishiga o'xshab dehqonchilik qilaman deydi, bolam, – u burni uchiga qo'ndirib olgan qalin oynali ko'zoynagi ustidan bobomga zimdan ko'z tashlab qo'ydi. – Bu kishiga ham bundan ortiq baxt yo'q.

Men bobom nega shu yoshga kirsa ham, amakimning hayhaylashiga qaramay o'zini o'qqa ham, cho'qqa ham uraverishini endi tushunib yetgandek bo'ldim.

* * *

Bilmayman, hozir siz qayerdadir bekam-u ko'st yashayotgandirsiz. Ammo yaxshilab

o'ylab ko'ring, hamma narsangiz yetarliymi? Balki, kechalari tinchlik bermay qandaydir kuch uyg'otib yuborar? Balki, uzoq vaqtdan beri ko'nglingiz nega xotirjam bo'lmayotganini o'ylab yurgandirsiz? Agar sizda zarra-cha yurak bo'lsa, bu – vatan sog'inchi ekani- ni sezasiz. Hayot qonuni shunday, bir yerda tug'ildingmi, tamom, umring oxirigacha qa- yerda bo'lsang ham yuraging o'sha bir qarich tuproqqa – vatanningga talpinaveradi. Mening ham kindigim shu yerda kesilgani uchun bepoyon yalangliklarga, so'lim qishloqqa bir narsa bog'lab turadi. Esimni tanib, shaharda o'sayotgan bo'lsam ham, faxr-iftixorga to'lib "Men qishloq farzandiman, tomirimda deh- qon qoni oqmoqda!" degim keladi.

Bularning hammasi ham bobomdan eshit- ganlarim emas. Ularni o'zim, mana shu urib turgan yuragim bilan his qildim. Shuni tushu- nib yetdimki, hayotda kibrga berilib, mol-u davlatga aldanmasdan yashaganlar baxtli ekan. Inson qancha boy bo'lsa, ko'zi shuncha och bo'lib boraverarkan. Qozoni qaynagan kunni bayram qiladigan kambag'al esa ozgi- na narsaga ham qanoat qilib, tinch-totuv umr kechirarkan. Axir, eng kerak narsa ham shu emasmi?..

* * *

Bobomning qo'llaridek dag'al, ammo qadrdon yo'llar allaqachon ortimizda qolib ketdi. Endi mashina ortiq silkinmas, bir qarashda adog'i ko'rinmas ufqqa tutash asfalt yo'l bo'ylab shamoldek yelib borardi... borardi...

YORDAM

I

Tashqari sovuq. Hali kech kirmagan bo'lsa-da, osmonda quyosh ko'rinmaydi. Havo dilni xira qiladigan allaqanday bo'g'iqlik, kulrang tus olgan, hovli etagida qorayib turgan yalang'och daraxtlar shoxida qarg'a qag'illaydi. Qish qoq o'rtasiga kelgan, ammo yerda qor yo'q. Qachondir to'kilganda paydo bo'lgan halqob suvlar tarashadek muzlagan.

Nimqorong'i xonaga terlagan derazadan ojiz nur tushadi. Burchakdagi cho'yan pechka yonida uxlayotgan bola goh-goh bezovtalanib qoladi. Televizor allanimalarni shivirlaydi.

Jo'ravoy xontaxta yonida chalqancha yotib, nimalarnidir xayol suryapti. Egnida sarg'ish jemper. Mahallada uni "Jo'raboy" deyishadi. (Birovning cho'ntagida bir so'm qolmasa ham,

unda topiladi, bo'lmasa "boy" deyisharmidi?) Katta millioner bo'lmasa ham, mahalla-ko'y, qishloq ahlining ishi tushib turadi. Qarz so'rab, ostonasiga bosh urib keladiganlarning adog'i yo'q.

O'zining uchta o'g'li bor. Kattasi ishbilarmon, sal sho'xligi bor-ku, lekin o'zining nonini o'zi topib yeyishga aqli yetib qolgan. O'rtan-chasi maktabda yettinchi sinf, supraqoqdisi tag'in o'g'il. Unisi endi besh yosh. Hali kichkina-yu, mushtdek boshiga yerga ursang, ko'k-ka sapchiydigan xilidan. Uxlatib tinchitmasang, bir ish qilgani qo'ymaydi. Hamma o'g'il-ga zor, Jo'ravoy esa qizim yo'q deb noliydi. Qiz bola harna uy ishlarida yordamchi, qariganda suyanchiq bo'ladi, deydi-da.

Tashqarida xotini – Zebo allaqanday yumushlarni qilib yuribdi. Bir qarasang, tashqarida supurgi ko'tarib yurgan bo'lsa, bir qarasang, bostirmada ko'rasan. Mana hozir ichkariga zixlari xiyol bukilib, kirlanib ketgan eski chelakda ko'mir olib kirdi. U eshikni ochishi bilan izg'irin sovuq o'zini ichkariga urdi-yu, ajdardek olov purkayotgan pechkaning issig'i uni Jo'ravoygacha yo'latmadi.

Zeboga erining bunday yotishi erish tuyildi, shekilli, unga asabi buzilib qarab qo'ydi. Otashkurak bilan pechkani titkilarkan,

ko'mirning achimsiq isidan qoshlari chimirilib, ko'zlarini qisdi.

– Yalpayib yotavermasdan sizam bir erkakka o'xshab, o'tin-po'tin yorib bersangiz bo'lmaydimi?

Jo'ravoy bir ko'zini xiyol ochib, xotiniga qaradi-yu, indamadi.

– Bir bo'lak pechkabop o'tin qolmapti. Ko'mir bilan ish bitarmidi?

Tag'in javob bo'lmadi.

– Er degan mundoq tashqariga chiqib, ro'zg'orga qarardi. Bir yoqda o'tin tugagan, bir yoqda... – Zebo yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, gapini burib qo'ya qoldi. – Undan ko'ra, turing, bostirmada o'rikning o'tini turribdi, yorib bering.

Choynakdagi suvni pechka ustiga qo'yarkan, Zebo o'sha yerda yotgan o'g'liga yuzlandi.

– Tur senam, Jamshid, shom bo'p qoldi. Kech bo'lganda yotma, yomon bo'ladi.

Bola uyg'onib, qayerdaligini bilmay garangsib qoldi, shekilli, bir zum boshini sarak-sarak qilib, goh oyisiga, goh dadasiga qarab turaverdi. Keyin ko'zlarini ishqalab, o'rnidan turdi-da, g'ingshiy boshladi.

– Oyi-i-i, no-o-n!..

– Nima, men nonni berkitib qo'yibmidim? Ana nondon, yuzingni yuvib kelib, olib ye-

yaver, yo yema deb aytdimmi biror marta? – dedi Zebo tanbeh berib.

Jamshid indamay tashqariga chiqdi.

II

Bir necha kundan beri Jo'ravoyning yuragi g'ash. Ish qilganida ham, ovqatlanganida ham, televizor ko'rib yotganida ham xayoli bir joyda turmayapti. Yuragini so'ngsiz, tushunib bo'lmaydigan tuyg'ular tumandek chulg'ab olgan, allaqanday bir kuch uni kechalari uyg'otib yuboradi. Shu bilan tonggacha mijja qoqmay, sigaret tutatib, televizorni u kanal-dan bu kanalga olib o'ynagancha bir nuqtaga termilib o'tiradi. Xotini bezovtalanib, boshini yostiqlardan ko'taradi-yu, bobillab beradi.

– Tong saharlab turib olmasdan, yotsangiz bo'lmaydimi? Hali so'fi uyg'ongani yo'q-ku, siz bo'lsangiz televizorni varanglatib qo'yib olgansiz.

Jo'ravoy beixtiyor televizor ovozi pastlatadi. Sigaretini kuldonga bosib o'chiradi-yu, tag'in boshqasini oladi. Uyqusi buzilgan Zebo allanimalar deb bidirlaydi. Jo'ravoy parvo qilmaydi.

III

Tashqari sovuq. Yaxlagan daraxt shoxlari hazin likillar. Osmonda go'yoki hech nima yo'qdek tuyuladi.

– Mehr-oqibat insonni ko'rkam qiladi, – deydi televizordagi kishi. – Hamma narsa ham pul bilan o'lchanmaydi. Muhimi, inson bo'lish.

– Veh, – dedi Jo'ravoy ijirg'anib, – cho'ntaging bo'sh qolsin, ko'ramiz holingni. Kamerani oldiga turvolib gapirish oson. Shu pul bo'lma-ganda yurarding sen ham mishig'ingni oqizi-i-b.

Televizordagi kishi tag'in gapini davom ettiradi.

– E-e-e, – Jo'raqul paypaslab, pulni topib, boshqa kanalga oldi.

Zebo tashqariga chiqib ketdi.

IV

Mehr-muruvvat, sadoqat kabi narsalar ilgari bo'lardi, hozir yo'q. Hozir hamma pul uchun yelib-yuguradi, pul deb og'zi ochiladi. Tug'ilish ham pul, yashash ham pul. Qo'ying-ki, o'lish ham pul. Shunday zamonda "qiynalib qolibsiz" deb qo'lingga qo'shqo'llab pul tutqazib qo'yadigan ahmoq bor ekanmi? O'zi ham shu kunlarga yetguncha qancha mehnat qildi.

Bola-chaqam deb, birovni aka, birovni tog'a deb yurganini bular qayoqdan bilardi?

Esida, o'shanda universitetda birinchi kursda o'qirdi. Yolg'iz onasining ishonchini oqlayman deb, kun-u tun tirishib o'qidi. Harna o'zini-o'zi eplab yurish uchun kvartirasi yaqinidagi do'konga tungi smenada yuk tashuvchi bo'lib ishga kirib oldi. Onasi qishloqdagi maktabda farroshlik qilardi. Jo'ravoyning maqsadi tezroq o'qishni tugatib, onasini bu ishlardan nari tutish, ukasini ham o'qitish edi.

O'sha kezlar uning ko'p fanlardan baholari yaxshi bo'lib borar, erishganlari borgan sari o'zini ham yanada ilhomlantirib, o'zgacha zavq berardi.

Bir kuni nimadir bo'ldi-yu, jismoniy tarbiya domlasi Ma'ruf Soliyev bilan tortishib qoldi. Hech qachon domlalarga yomon munosabatda bo'lmagan Jo'ravoy Soliyev bilan anchagacha gap aytishib yurdi. Bora-bora shu fanning nomini eshitishi hamonoq yuragi bezillaydigan bo'lib qoldi. Darslariga ham noilojdan kirdi.

Doimo egniga keng sport kiyimi, oyog'iga oqish krossovka kiyib yuradigan Soliyev o'rta yoshli, qotmadan kelgan kishi edi. Har safar dars boshida qulog'i ustiga tushib turadigan jingalak sochlarini siypalab, qoshlarini chi-

mirgancha yo'qlama qilib olar, so'ng futbol to'pini olib, hammani sport zali orqasidagi ajriqli ochiq maydonga boshlab chiqardi. Qizlar esa zalda har xil o'yinlar o'ynab o'tirishar, deyarli har dars shu tarzda o'tardi...

Keyinchalik oradagi gap-so'zlar unut bo'lib, domla Jo'ravoyga uncha e'tibor bermay qo'ydi. Qaytanga o'yinlarda yaxshi harakat qilsa, "besh" bilan siylay boshladi.

Ammo domlaning asl yuzini sessiyada ko'rar ekansan. Shuncha vaqt talabalarining emin-erkin yurishlariga qo'yib bergan Soliyev birdan to'nini teskari kiyib oldi. Endi uni hech kim tanimay qolgan, bu oldingi Soliyev emas, go'yo ichiga boshqa odam kirib olgan, avvalgisidan faqat tana qolgandek tuyulardi.

– Bugun yakuniy nazorat ishi, – dedi u darslarning birida qat'iy ohangda.

Zalda g'ala-g'ovur boshlanib ketdi.

– Hozir hamma belgilangan normativlarni topshiradi, – dedi bosiqlik bilan. Birdan shovqin bosilib, hamma muallimga savol nazari bilan qaradi. – O'ta olmaganlar sessiyani yopa olmaydi. – Soliyev go'yoki achchiq jilmayib, "mening sovunimga kir yuvmabsanlar hali" degandek qarab turar, qatorlashib turib olgan talabalar churq etmay uning gaplarini tinglashardi.

U hammaga bir-bir nazar tashlab chiqar ekan, tag'in qo'shimcha qildi. – Ular bilan qayta topshirishda yana ko'rishamiz.

– Tushunarli, domla! – dedi sardor itoatkorona.

Shu kuni sinovdan ko'pchilik o'ta olmadi. Domla hech kimni ayab o'tirgani yo'q. Guruh sardorining aytishiga qaraganda, Soliyev: "Yaxshi baho olish uchun hadeb yuguravermay, og'iz moylashni ham bilish kerak, aytilgan vaqtda yugurolmaydi ancha-munchasi", – degan emish.

– Hih, – degandi o'shanda Jo'ravoy domlaning ayyorligiga qoyil qolgancha boshini alam bilan likillatib, – top-toza poraxo'r ekan-ku bu! Hech qanaqa pul bermayman, sessiyani o'z kuchim bilan yopaman! Men pullarni ko'chadan supurib olayotganim yo'q!

...Uzoqqa yugurish oson ish emasligini Jo'ravoy o'shanda bildi. Marraga yetib kelganida qo'li oqib tushay deb sirqirab og'rir, charchoqdan ochilgan og'zini yopishga kuch topa olmas edi.

– Eshboyev, o'tolmading, – dedi bir chetda kuzatib turgan Soliyev daftariga allanimalarni yozar ekan, – roppa-rosa ikki minut kech qolding!

Domlaning gaplari Jo'ravoyning qulog'iga kirib-kirmadi. Lapanglab borib devorga su-yandi-yu, sekin sirpanib, o'tirib qoldi.

Ertasiga starosta uning yoniga o'tirib, qu-log'iga asta shipshidi.

– Soliyevni nima qilasan?

– Domlanimi?

– Sekinroq gapirsang-chi, birov eshitib qolmasin tag'in.

– Ma'ruf Soliyevni aytyapsanmi?

– Ha, kimni bo'lardi? Aytgan pulini berib, sessiyani yopasanmi? Yoki...

Uning rozi bo'lishdan boshqa iloji qolma-gandi. Ustiga-ustak, yonida puli yo'q edi. Ishi-da oldindan maosh berishmadi. Qarz so'rab yurib, topilavermagach, oxiri partadosh o'r-tog'i Sobirdan ikki barobar qilib qaytarishga pul oldi. Lekin unga alam qiladigani bu emas-di. Shuncha payt undan imtihonlarda yor-damini ayamasa-yu, bir marta puldan qiyna-lib qolganda oshirib qaytarishga qarz bersa... Ana shunisi og'ir botardi unga. Bir narsa dey desa, pul uniki, qiynalgan o'zi.

Jo'ravoy sessiyani "a'lo"ga yopdi. Qarzi-ni to'lash uchun ko'proq ishlab, ma'lum vaqt qiynaldi-yu, keyinchalik hammasi iziga tushib ketdi. Ammo o'sha poraxo'r domlani hech unutilmadi. Har safar darsiga kirganda uning

yuziga ijirg'anib qarar, orqadan pora yeb, yana qaysi yuz bilan ko'ziga hech narsa bo'lmagan-dek tikilib turganiga sira aqli yetmasdi.

Ancha vaqtgacha domladan nafratlanib yurdi. Ammo keyin bilsa, porani domla emas, sardor yegan ekan. Soliyev aslida insof qilib baholarni qo'yib bergan, starosta esa, domla pul so'rayapti deb, cho'ntagini to'ldirgan ekan.

Shu ishning misi chiqqach, Jo'ravoy bir muddat o'ziga kelolmay yurdi. Endi u guruh sardori qo'l uzatsa so'rashmas, harom qo'lidan ushlashga hazar qilar, kezi kelsa, yuziga tuflagisi kelardi. Qo'lida qo'g'irchoqdek o'ynatgan odamni ko'rishga ko'zi yo'q edi uning. Uni deb bir begunoh domla haqida qanchalar yomon xayollar surdi. Nimalar deb o'ylamadi u haqida. Pul topish uchun qancha qiynaldi...

Bu voqealar unut bo'lib ketgan edi. Televizordagi gaplar o'sha alamli damlarni Jo'ravoyning xayolida yana jonlantirib yubordi. Pul bor joyda adolat, mehr degan tuyg'ular bir chetga surilishiga tag'in amin bo'ldi.

Shunga o'xshash voqealar uning hayotida ko'p bo'lgan. Barini eslashga vaqt ham yetmaydi hatto. Balki, o'shalar sababchidir uning ham diydasi qotishiga. Atrofdagilar senga ko'nikmasa, sen atrofdagilarga ko'nikishing kerak.

Bu – hayot qonuni. Yoki Jo‘ravoy ularga ko‘nikib, shunday hayotga o‘rganib qoldimi?..

V

Jo‘ravoy diqqinafas bo‘lib tashqariga chiqqanda qosh qorayib qolgan edi. Boyagina yaxlit bo‘shliqdek ko‘rinayotgan osmonning bir chetida yakkam-dukkam bulutlar osilib yurar, atrof suv quygandek jimjit edi. Shu tobda tushdan beri atrofni tutundek qoplab turgan tuman endi tarqagan, hovli etagidagi daraxtlar ko‘zga sharpadek qorayib ko‘rinar, sho‘rlagan devorlar nimadir deyishga shaylanib, zaboni yo‘qligi uchun sukut saqlayotgandek mung‘ayib turardi.

U bir-bir bosib, bostirma tomon yurdi. Yog‘och eshikni avaylab ocharkan, dimog‘iga zax aralash tezak isi urildi. Kiraverishda uyib qo‘yilgan g‘o‘lalardan bittasini yumalatib tashqariga olib chiqdi-da, bolta bilan mo‘ljallab chopdi. Keyin yana shu ishni takrorladi.

Sal narida Jamshidning o‘ynab o‘tirganiga ko‘zi tushdi-yu, dashnom berdi.

– Uyga kir! Sovuqda nima qilyapsan? Shamollab qolasan-ku!

– Shamollamayman, – dedi Jamshid gap qaytarib, – unaqada o‘zingiz ham shamollaysiz-ku, uyga kiring siz ham.

– Tirrancha-yey, xo'p deyishni bilmaydigan bo'ldingmi? Akang kelsin, qulog'ingdan tortib qo'yadi. Kir uyga!

Jamshid kemshik tishlarini ko'rsatib iljaydi. Keyin yana hech nima bo'lmagandek o'ynab o'tiraverdi. Jo'ravoy o'g'illarining betarbiya bo'lib o'sayotganini o'ylab, seskanib ketdi.

VI

Qaysi kuni, esida yo'q, ishqilib, yanvar edi. Jo'ravoy choyxona palovning yog'idan yaltirab turgan barmoqlarini o'ngib ketgan sochiqqa bir-bir artar ekan, bir zum televizorga angrayib qarab turdi-da, istehzoli iljayib, boshini sarak-sarak qildi.

– Vatanni qo'riqlayotgan emish, tinch yurtda yuribsan, kerile-e-b. Shukur qil! Hozir oldingi otdi-otdilar yo'q, – dedi gapining tasdig'ini kutgandek yonidagi sherigi Abduvaliga ko'z qirini tashlab.

Abduvali Jo'ravoyning gaplariga parvo qilmadi. U tishining kovagiga kirib qolgan go'sht parchasini olishga urinar ekan, peshonasi-dagi terni yengi bilan artib, ulfatining gapiga "to'g'ri" degandek bosh irg'ab qo'ydi.

Jo'ravoy bir chetda turgan pultni olib, televizor ovozi ko'tardi-yu, tag'in ensasi qotdi.

– Shuncha izzat, shuncha ehtirom-a! Bir karomat ko'rsatibdimi bular! – dedi ortidagi yostiqni olib yonboshlar ekan. – Xudo ko'rsatmasin, bir yerda urush bo'lsami, oldiga tushib qochadigan ham shular.

Aytgan gapi o'ziga nash'a qilib, tog'oradek qornini silkib-silkib kuldi.

Abduvalidan sado chiqmadi. Orada choyxonachi yigit mijozlardan xabar olib, choyni yangilab chiqib ketdi.

Deraza orti ko'roydin edi. Ko'chada odam siyraklashdi. Zulmat ichra uzoq-uzoqlarda chiroqlar yulduzdek miltillab, ko'zni oladi. Ahyon-ahyonda it uliydi. Tashqarida qorning quruq sovug'i etni tors-tors yoray deydi.

Jo'ravoy bir zum xayol surdi-yu, chinni piyola tagida qolgan shamani boshqa idishga to'kib, issiq choydan to'ldirib quydi. Og'zi kuyib, piyoladan ho'plar ekan, hamrohiga yuzlandi.

– Senam bir nima desang-chi, vey! Zabon bormi o'zi?

Abduvali “menga nima” degandek beparvo qo'l silkidi.

– Oddiy misol, – dedi Jo'ravoy yana gap boshlab. – Tunov kuni uyimda o'nta haligi “ko'k o'lgur”dan yo'qoldi. Birov bilmabdi. O'g'limni to'yiga deb yig'ib yurgandim.

Abduvali bir zum to'xtadi-yu, ko'zlari olayib ketdi.

– Nechta deysan?

Jo'ravoy erinib yuzini burdi.

– O'nta! Nima, eshitmovmiding?

– Qayoqdan eshitay, ikki-uch kundan beri choyxonaga chiqmasam? A, u yer-bu yerni yaxshilab qarab ko'rmadingmi? Balki, xotining olgandir, balki, qo'ygan joyingni unut...

Uning gapi og'zida qoldi.

– Vey, men senga yosh bolamanmi, qo'ygan joyim esimdan chiqadi. Yo, shuncha pul o'yinchoq bo'ldimi? Buniyam qo'yib tur, o'tgan hafta tumshug'imning tagidan bir bosh qo'yimni urib ketibdi, bachchag'ar!

Abduvali oq aralash to'rttagina tuki bor yaydoq iyagidagini siypalaganicha, boshini likillatib, ulfatiga achingan bo'ldi.

– Bilgan odam qilgan, Jo'ra. Bilmasa, yuragi betlamas-ov! Tag'in bilmadim.

– Biladigan odammi, bilmaydiganmi, bari-birmasmi? Xalqni tinchligini bot-bot ta'kidlayotgan manavi ko'kragi ko'ylak yirtganlar ham ko'z-quloq bo'lsa bo'lmaydimi?! E-e, sadqayi odam ketsin-e!

Allakim qadamini tezlatib kelib, deraza yonidan sharpadek o'tdi. Oyog'idagini apiltapil yechdi-da, o'zini ichkariga urdi. Eshik

ochilishi bilan izillab kirgan sovuq Jo'ra-voyning etini jimirlatdi.

– Dada! – dedi mo'ylabi sabza urgan yigit entikib nafas olarkan. – Nodir... Nodir melisa sizni chaqiryapti!

Jo'ravoy Abduvaliga bir qarab qo'ydi.

– Tag'in tinchlikmi? Bir gapi bo'lsa, telefon qilavermaydimi?

– Telefonda aytadigan gapmas, dada!

– Yana o'g'ri tushibdimi?! – yuragiga xavo-tir oralab, shoshib qaddini rosladi Jo'ravoy.

– Yo'q, haligi...

– Nima?! Gapirsang-chi! Bugun hammang kelishib olganmisan gapirmaslikka? Aytaver, Abduvalidan saqlaydigan sirim yo'q meni!

– Akam... akam mahalladagi yigitlar bilan qimor o'ynayotgan ekan, qo'lga tushibdi...

Jo'ravoyning miyasiga qon tepdi. G'a-zabdan ko'zlari olayib, go'shtli barmoqlari bilinar-bilinmas titray boshladi. Televizor esa hamon elparvarlar haqida gapirardi...

U bolalariga yaxshi tarbiya bera olmayot-ganini o'shanda bilgandi. Pul ko'zlarini ko'r qilib, uyidagi muhitga e'tibor ham bermay qo'yibdi. O'zi ota tarbiyasini olmagan uchun-mi, shuncha vaqt bunga bepisand qarab keldi. Endi, og'zi oshga yetay deganda ish bundoq bo'lib turibdi.

VII

Kechqurun ovqat ustida ham tag'in sovuq kayfiyat uni tark etgani yo'q. Bolta ushlab toliqqan chillakdek ingichka barmoqlari sirqirab og'rir, qoshiqlarning kosaga urilib tiqirlashi ham, piyolaga quyilayotgan choyning quldirashi ham asabini egovlay boshladi.

Zebo erining yuziga goh-goh ma'noli qarab qo'yar, aftidan yurak yutib sababini so'ramoqchi bo'lar, lekin javobini bilgani uchunmi, tag'in indamayotgandek edi.

– Non opke, – dedi nihoyat o'rtancha o'g'li Javohirga qarab.

– E-e, ana Jamshid opkesin, – Javohir xunob bo'lib, peshonasini tirishtirdi, – Hamma ishga men, uyam o'rgansin-da!

– Ukang hali kichkina, o'zing bor, – dedi Zebo tergagan ohangda.

– Uff! – dedi Javohir o'rnidan turarkan, ukasining boshiga yengilroq urib.

Jo'ravoy o'yg'a cho'mdi. Dunyo shunchalik beshafqat ekan, aqalli aka-uka o'rtasida mehr-oqibat, insoniylik degan tuyg'ular bo'lishi kerak emasmi? U farzandlariga shuni ham eplab o'rgata olmadimi? Kimga o'xshab o'syapti bular?

Ana shunday o'y-xayollar uni yarim kechaga-cha tark etmadi. Yostiqa bosh qo'yib yotibdi-yu, ko'zi yumilay demaydi. Devorga osig'liq soatning chiqillashi quloqni qomatga keltiradi. Derazadan mo'ralab turgan oy uning holiga achingandek ma'yus termilib, bosh egib turar, qandaydir og'ir sukunat yurakni ezib yuborar edi.

VIII

Shu kecha tong imillab otdi. Kun tikkaga kelganiga qaramay, havo ancha sovuq, go'yo quyosh mehrini qizg'ongandek noiloj nur sochar, yaxlagan kesaklar ustiga qo'ngan qirov yiltirab ko'rinardi.

Torgina xonada uyquasi qochgan Jo'ravoy qizargan ko'zlarini ishqalab, qaddini rostladi-da, tashqariga yo'naldi. Kechagi xayollar-dan fikrlari chuvalashib, ko'zi ilingan ekan. Qancha uxladi, o'zi ham bilmaydi. Lekin uyqusida ham bezovtalanib, to'lg'onib chiqdi.

Ostonadan hatlarkan, o'ziga ancha qadr-don, onasidan qolgan hovlisiga uzoq tikilib qoldi. Bir zum shu alfozda serrayib turgach, ko'ksini to'ldirib nafas oldi-da, namchil bag'ri-ni siypaladi.

Uzoq-uzoqlarda eshak hangradi. Shuni kutib turgan, shekilli, yaqindagisi ham qo'-

shilishdi. Jo'ravoy "Ovozing o'chgur" dedi-yu, bir poyi sal nariga uchib ketgan kalishini oyoq uchida borib kiydi.

Yuz-qo'lini yuvib, qo'ylardan xabar olib keldi.

O'n qadamcha enishda o'ziga ikkita keladigan xotini nonushta tayyorlar edi.

– Tushimga onam kiribdilar, – dedi u eshikdan mo'ralagancha. – "Rahmat senga, ukang ikkingizga bir o'zim oq sut berib katta qilgandim, bemehr bo'lib ulg'ayibsan", – dedilar.

– Erkak kishiyam tush ko'rarkanmi? – Zebo tilla tishlarini ko'rsatib kulib qo'ydi. – Tavba!

– Ukam katta qarz olib qiynalib qoldi-da-a. Shungami, o'tirganimda ham, turganimda ham halovat qolmadi.

– Olmasin edi, bizga nima! Aybdor bizmi? Pul unga kerak-ku!

– Ve, xotin, shunday deysan-ku, ammo onam tushimga bejiz kirmagan. Katta o'g'il bo'la turib, hovlini men oldim. Endi, aka bo'lib yordamim tegmasa, nima qilib yuribman?

– O'zi, begona yaxshi bo'lib qoldi hozir tekinxo'r ukalardan.

– Ey, – dedi g'ijinib, – nima bo'lganda ham ukam. Bir shunga yaxshilik qilsam, qilibman-da! Aka-ukachilik shunaqa damlarda bilinadi. Bolalaring ham shundan o'rnak olsin

deyman-da. Ular ham bemehr bo'lib o'sish-masa go'rga edi.

– E-e, bilganingizni qilmaysizmi...

U cho'ntagidan telefonini chiqarib, ukasi-ning raqamini terdi. "Oraga xotinlar aralashib, ja-a bemehr bo'p ketyapmiz o'zi", dedi ichida.

– Ha, uka, yaxshimisan? – hol so'radi Jo'ra-voy.

– Rahmat, aka, o'zingiz, bolalar, kelinoyim tuzukmilar?

– Hamma yaxshi, xavotir olma. Senga bir narsani aytish uchun qo'ng'iroq qilyapman.

– Nima ekan?

– Onam tushimga kiribdilar, "orangizdan oqibat qochmasin, qiyin damlarda ukangga yordam ber", – dedilar. Shunga yangang bilan maslahatlashib, bir qarorga keldik. Qancha olgan bo'lsang, shuncha beraver. Qolganiga rozimiz...



UMIDCHIROQ

Tun yarmidan oqqan, atrof jimjit. Faqat hovliga ekilgan anvoyi gullar orasidan chigirtkalarining tinimsiz chirillashi eshitilib turadi. Uzoq-uzoqlarda it uliydi. Ayvon peshtoqidagi chiroq peshayvonga bir tekisda nur sochadi. Uning shu'lası qo'ng'iz-u chivinlarni ohan-rabodek o'ziga tortadi.

Sadoqat uyg'onib ketib, yonini paypaslab ko'rdi. Eri yo'qligini bilgach, ko'zlarini arang ochib, to'g'ridagi devorga ilib qo'yilgan osma soatga uyqu aralash nazar tashladi. Vaqt allamahol bo'lgan bo'lsa ham, eri hali ko'chadan beri kelmabdi.

Dilmurod avvallari bunday emasdi. Yaqin-yaqindan shunaqa "qiliq" chiqarib oldi. So'fi uyg'onmasdan ko'chaga chiqib ketadi-yu, yarim tunda ostona hatlab yana uyga kirib kelaveradi.

Mana, besh yildirki, ular tirnoqqa zor. Bormagan shifoxonasi, ko'rinmagan doktori qolmadi. Lekin foydasi bo'lmadi. Sadoqat ham shuncha vaqt umid bilan yashab keldi. Endi kundan-kunga o'sha umid ham ilinjga aylanib, dard ummonida asta-sekin so'nib bormoqda...

Turmush qurishlaridan avval Dilmurod Sadoqatni qattiq sevardi. Har gal uchrashganlarida maktab yaqinidagi anhor bo'yiga o'rnatilgan yog'och o'rindiqa o'tirgancha bir-birlariga va'dalar berib, shirin xayollar surishardi. Dilmurod kelishgan, muomalali yigit bo'lganligi uchun o'sha paytlar ko'p qizlarning unda ko'ngli bor edi. Ammo Dilmurod Sadoqatni tanladi, birgina uni deb hammasidan voz kechdi. Sadoqat esa uni sevib, ardoqlagan insonni ham baxtli qilishga kuchi yetmayapti. Aksincha, borgan sari erining oyoqlariga taqilgan kishan kabi uni baxtsizlikka mahkum qilayotgandek tuyulaveradi.

Sadoqat erini o'ylab, xayoli ming bir ko'chaga kirib chiqardi. Kech kelishini turli bahonalarga yo'yib, o'zini ovutishga urinardi. Ammo ming o'zini aldamasin, achchiq haqiqatdan qochib hech qayoqqa ketolmasdi. "Qidirgan baxtini mendan topmagach, o'zgalaridan qidiradi-da" degan o'y uni battar tashvishga solardi.

Ana shunday nihoyasiz o'ylar bilan uyqu-si qochib, anchagacha shiftga termilib yotdi. Ko'zlaridan oqqan yoshlari derazadan tushib turgan oy nurida yaltirab, yostig'iga tomchiladi. Qayerdandir boshiga og'riq kirib, zirqiray boshladi. Biroz turgach, yuzini qo'llari bilan

artib, qaddini rostladi. Og'ir-og'ir qadam bos-gancha eshik yoniga borib, chiroqni yoqdi-yu, ko'zlari qamashib ketdi. O'sha yerdagi shkafni ochib, dorilar turadigan qutini titkilay ketdi. Yarimta dorini ajratib oldi-da, eshikni ochib, tashqariga yo'naldi.

Zinadan tushaverishga – peshayvonga o'rnatilgan so'rida oyoqlarini osiltirgancha Dilmurod sigaret tutatib o'tirardi. U eshikning g'ichirlab ochilganini eshitib, yarq etib o'sha tomonga qaradi.

– Haliyam uxlamadingmi?

Sadoqat erining dab-durustdan aytgan gapidan cho'chib tushdi.

– Yuragimni yordingiz, – dedi-yu, ovozi bo'g'ilib chiqqanligi uchun tomog'ini qirib qo'ydi, – shu yerda ekaningizni bilmabman.

Dilmurod sigaretini bir marta qattiq tort-di-da, yerga tashlab oyog'i bilan ezdi.

– Qachon keldingiz? – dedi Sadoqat zinanadan pastga tushar ekan.

– O'-o', hali ko'p bo'lmadi, – Dilmurod yoniga chirt etib tupurdi. – O'zing nega uxlamaypsan? Yo konspekt yozdingmi yana?

Oshxonada suvning shildirab quyilishi eshitildi.

– Yo'q, boshim og'rib uyg'onib ketdim. Konspektlarimni maktabda yozib kelgandim,

– Sadoqat qozon qopqog‘ini ochib ko‘rdi. – Qorningiz ochmi?

– Yo‘q, ko‘chada ovqatlandim. Yotib damingni olaver, men ham hozir kiranman.

Dilmurod darvozani qulflash uchun o‘sha tomonga qarab yurdi.

– Aytgancha, besh yuz ming so‘m pul tayyorlab, stol ustiga qo‘yib qo‘y, – dedi-da, tag‘in qo‘shimcha qildi: – Ertalab vaqtli chiqib ketaman, seni ham uyg‘otib yurmay.

Sadoqatning yuragiga yana o‘sha gumon urug‘lari qadaldi. Erining ishi ertalab yettida boshlanishini o‘ylab, yana yomon xayolga bordi. “Yangi xotiningizga olib borasizmi?” demoqchi bo‘ldi-yu, o‘zi aybdorligini bilib, fikridan qaytdi.

– Xo‘p, – dedi itoatkorlik bilan va ichkariga kirib ketdi.

Osmonda gumonlar zulmati aro suzib yurgan oy ko‘rinmay qoldi. Ishonch bilan ko‘kka tirmashib chiqib kelayotgan quyoshning nurlari ko‘zini qamashtirdimi, yulduzlar ham zimdan qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi. Xiyol ochiq derazadan yoz tongining iliq epkini kirib kelar, allaqayerda xo‘roz cho‘zib-cho‘zib qichqirdi.

Sadoqat charchoqdan yumilgan ko‘zlarini ochdi. Ko‘chalarni supurib, suv sepgach,

uylarni yig'ishtirgan bo'ldi. Ishtahasi yo'qligi uchun nonushtani tuzukkina qilmadi ham. Narsalarini sumkasiga soldi-da, maktabga otlandi.

Darvozani qulflar ekan, yana eri xayoliga keldi. Dilmurodning ham ishi maktab tomonida bo'lganligi uchun uni ham o'zi bilan birga mashinasida olib ketar, kezi kelsa, yo'ldagi gul do'konidan qip-qizil atirgul olib chiqib, qo'liga tutqazardi. Ana shunday damlarda Sadoqatning yuragida nomini o'zi ham bilmaydigan ajib hislar jo'sh urib, xayolidan "Dunyodagi eng baxtli ayolman" degan fikr sira ketmasdi. Qiziq, o'shanda haqmidi? Yoki hammasi bir tushdek gapmi? O'z qo'lidagi baxtni mahkam tutib qololmasa-ya...

Mana, bir necha kundirki, o'zi yolg'iz ket-yapti. Ilgari Dilmurod bilan maktabgacha tezda yetib kelib qolishardi. Hozir esa unga bu yo'l bir umr tugamaydigandek, poyonsizdek tuyulib ketdi.

Sadoqat kayfiyati yo'qligi uchun ishda ham kun bo'yi parishon yurdi. O'zi bilan bo'lib, darsga ham, sinfdagi bolalarning baqir-chaqiriga ham e'tibor bermadi.

Negadir shu tobda uning ko'z o'ngida begona bir ayol bilan qo'ltiqlashib yurgan Dilmurodi jonlandi. Boshqalardek eriga far-

zand tug'ib bera olmaganidan afsuslanib, ichidan xo'rsiniq keldi.

U maktab qo'ng'irog'i ovozidan o'ziga keldi. Soatiga qarab, ketadigan vaqt bo'lganini ko'rdi-yu, bolalar orasidan o'tib, ildam qadam tashlagancha tashqariga chiqib ketdi.

Dilmurod qo'ng'iroq qilganda Sadoqat yo'l yoqasiga yetib kelgan edi. U birdan chalingan musiqadan seskanib ketdi. So'ng sumkasini titkilab telefonini topdi-da, qulog'iga tutdi.

– Eshitaman...

– Darsing tugadimi? – dedi Dilmurod nari-gi tomondan.

– Ha, hozir chiqdim maktabdan.

– Pasporting yoningdami?

– Yonimda, – Sadoqat erining shoshilinch ohangda gapirganidan xavotirga tushdi, – tinchlikmi?

– Sen bilan oldinlari uchrashadigan anhor bo'yidagi joy bor edi-ku, esingdami?

– Esimda.

– O'sha yerga borib tur, ruldaman, uchrashganda yotig'i bilan hammasini tushuntirib beraman.

Telefonni qo'yar ekan, Sadoqat joyida qotib qoldi. "Ajrashmoqchi", dedi bir nuqtaga tikilib. Bir zum shu alfozda serrayib turdi-da, aytilgan joyga yo'l oldi.

May oyining o'rtalari bo'lgani uchun havo ancha issiq. Anhor bo'yidagi majnuntol barglarining qayoqdandir paydo bo'lgan issiq yel ta'siridagi shitirlagan ovozi suvning shovullashiga qo'shilib, sukunatni yanada chuqurlashtirayotgandek bo'lardi.

Sadoqat majnuntol tagidagi yog'och o'rindiqni ko'rib, eski xotiralari yana jonlandi. O'shanda juda baxtli edi. Darsi tugashi hamonoq Dilmurod bilan uchrashishga – shu yerga oshiqardi. Dilmurod uning qo'lini ham shu joyda so'ragandi. Shu anhor, majnuntol, yog'och o'rindiq birlashtirgandi ularni. Mana, hozir ham o'sha yerga keldi. Faqat, bu safar hammasiga yakun yasash uchun...

Ko'p o'tmay yo'l yoqasiga oppoq "Lacetti" kelib to'xtadi. Dilmurod mashinadan tushib, gurs etib eshikni yopdi-da, shaxdam qadam tashlab, shu tomonga kela boshladi.

Ular qadrdon joylariga o'tirgach, ancha-gacha sukut saqlashdi. Suvning sho'x mavjlanishini kuzatib, nimalarnidir uzoq o'ylashdi. Nihoyat, oradagi sovuq sukunatga barham berildi.

– Sadoqat, – Dilmurod gapni nimadan boshlashni bilmay boshi qotdi. Biroz ikkilanib turdi-da, gapida davom etdi, – ozmi, ko'pmi, shuncha yil birga yashadik. To'g'rimi?

Sadoqat indamadi.

– Ikki o‘rtada farzandimiz ham bo‘lmadi. Axir, bir umr shunday yashay olmaymiz-ku!.. Nima deyishni ham bilmayman...

– Gapiring, Dilmurod aka! – dedi Sadoqat ma’yus ko‘zlarini eriga tikib.

– Sen nima der ekansan... rozi bo‘lasanmi?..

– Sizni baxtli ko‘rsam bo‘ldi, hammasiga roziman! – dedi cho‘rt kesib.

– Unday bo‘lsa, yaxshi, – Dilmurodning yuziga tabassum yugurdi, – menga bir qiz juda yoqib qoldi. Har kuni uning holidan xabar olgani boryapman. Pulni ham shuning uchun olgandim.

Sadoqatning tomog‘iga allaqanday achchiq narsa tiqildi. Yuragi sel bo‘lib oqa boshladi.

– Sen ham rozi bo‘lsang, – dedi Dilmurod gapini davom ettirar ekan, – hoziroq mehribonlik uyiga borib, o‘sha qizni o‘zimizga farzand qilib olsak, degandim.

Sadoqat qop-qora qayrilma kipriklarini ko‘tarib, eriga yuzlandi.

– Shu gaplaringiz rostmi? Rost aytyap-sizmi? Ajrashmoqchi emasmisiz?

Dilmurod beg‘ubor kulib qo‘ydi.

– Sen bilan nega ajrashaman, tentakvoy, sensiz yashay olishimga o‘zing ishonasanmi? Hayotim mazmunisan-ku!

Ko'ksi to'lib turgan Sadoqat ortiq o'zini tutib tura olmadi. Qo'llari bilan yuzini berkitgancha yelkalarini silkib-silkib yig'lab yubordi...

HALOL

Jo'raqul qarshisidagi xaridorga bir qur nazar tashladi-da, tabaqalari katta qilib ochib qo'yilgan derazaning yuqori qismidagi bir qarashda mixni eslatuvchi temir ilgakka ilingan qo'y go'shtidan kesa boshladi. Yog'likkina yeridan ajratib, bir chetda turgan suyakni bolta bilan chopdi-yu, o'ylanib qoldi. Qishloqda hadeganda savdo ham bo'lavermayotganligi uchun bu ketishda tuzukroq foyda ko'rolmasligiga ko'zi yetdi. Yaxshisi, tarozidan "uradi". Xaridor soddagina kishiga o'xshaydi, sezib o'tiribdimi.

– Besh kilo dedingiz-a? – dedi Jo'raqul tuzukkina go'shtni "bir yoqli" qilar ekan.

– Ha, shuncha, – kutib qolgan xaridor seskandi. Cho'ntagidan ro'molchasini chiqarib, peshonasidagi terni artди-yu, tag'in gap boshladi. – Shu deng, uch-to'rtta odam chaqirib, uyda ehson qilmoqchi edim...

– Yaxshi qilasiz, o'zi har-har zamonda qilib turish kerak shunaqa narsalar ham.

– Qurbon hayiti yaqin, aslida, jonliq so'yishni niyat qilgandim-u, haligi tomondan jindek qiynalib qoldim-da.

– Shuyam harna-da, aka, Xudoni berganidan qo'ymasin. Muhimi, ko'ngildagisi.

– To'g'ri aytasiz, – xaridor yelim xaltaga o'ralgan go'shtni olar ekan, yo'lning narigi chetidagi do'konga imladi, – yana ul-bul olay, har holda, dasturxon quruq bo'lmasin.

– Ha, mayli, bemalol, kelib turing, aka.

– Rahmat, bor bo'ling.

Kushxonaga yana sukunat cho'kdi. Vizillab tinim bilmayotgan arilar uchib kelib o'zini go'shtga uradi. Jo'raqul boyagi kishi kirib ketgan do'konga bir muddat ko'z tikib turdi-da, "Hih, topgani uch so'm pul-u, yana ehson qilarmish", – dedi ensasi qotib.

Ko'p o'tmay go'sht ko'targan kishi do'kondan chiqib, shu tomonga shaxt bilan yurib kela boshladi. U yerdan hech nima sotib olmagan, shekilli, qo'lida go'sht o'ralgan yelim xaltadan boshqa narsa ko'rinmadi. Jo'raqulning yuragiga g'ulg'ula kirdi. "Bu, qurg'ur, do'konchining tarozisida o'lchab ko'rdi, shekilli. Yo'qsa, bu yerda yana nima ishi bor" deb o'yladi yo'ldan shoshib o'tib kelayotgan kishiga qaragancha. O'zicha miyasida har xil bahonalarni pishitib qo'ydi.

– Bir narsani unutgan ekanman, – dedi u hali yaqiniga kelib ulgurmagan kishiga qarata baland ohangda.

Talmovsiragancha pastdan boya “urib qo‘ygan” go‘shhini olib yana boshqa yelim xaltaga o‘ray ketdi. “Ja-a haqini berib qo‘ymaydi bular. Bir tiyinni ustida o‘mbaloq oshadi, ha desang”, dedi xayolida.

– Halol luqma yaxshi-da... – kishi shoshib kelgani uchun og‘zini katta-katta ochib nafas rostladi.

Jo‘raqulning asabi qo‘zidi.

– UZR, mendan o‘tibdi, yodimdan ko‘tarilgan ekan.

– Qo‘ying-e, nega uzr so‘raysiz, aslida men uzr so‘ragani keldim. Pul berishni unutgan ekanman, mana, oling!..

SOVG‘A

Ufq qizg‘ish tusga kirib, atrofga qorong‘i qo‘na boshlagan, qor gupillab yog‘adi. Dahliz shiftidagi nokdekkina chiroq o‘zini arang yoritayotganday, erinib, xira nur sochadi. Derazaga ignadek chirsillab urilayotgan qor parchalarining ovozi qizarib ketgan tunuka pech ustidagi cho‘yan choynakdan chiqayotgan

chiyillagan sasga qo'shilib quloqqa chalinadi. Gohida pech ichiga tiqilgan nam o'tinlarga jon kirib, "do'p-do'p" degan ovoz chiqaradi.

Munisa tinim bilmay u yoqdan bu yoqqa yelib-yugurar, kun bo'yi o'z qo'li bilan pishirgan shirinliklar, mayiz-turshaklargacha olib chiqib, dasturxon ustiga qo'yar, goh tashqariga chiqib, oqarib qolgan yerga shiddat bilan uyilayotgan qorning yog'ishiga termilib, "buncha ezmasa" degandek ohista bosh chayqardi.

Shu alfozda qancha vaqt o'tdi, o'zi ham anglolmay qoldi. Qalin qilib to'shalgan ko'r-pachaga cho'kkancha bir nimalarni o'ylarkan, tashqaridan allakimning qadam tovushi eshitildi. Keyin yaqin kelib, oyog'ini yerga tap-tap urdi-da, kiyimlarini qoqdi. O'sha yerdagi bo'sh paqir nimqorong'ida oyog'iga ilakishdi, shekilli, taraqlab uchib ketdi. O'zi ham cho'chinqiradimi, g'o'ng'irlab allakimni so'k-di-yu, deraza oldidan sharpadek o'tib, dahliz eshigini g'ichirlatib ochdi.

Munisa seskanib, o'sha tomonga qaradi.

– Yo'talib kelmaysizmi, yuragimni yoray dedingiz!

– Mendan boshqa kimam bo'lardi? – dedi Mirsalim eshikni zichlabgina yoparkan, xotiniga o'qrayib. – Oyoq tagidagi paqirni op-qo'ysang o'lasanmi?

Munisa hech nima demadi. Lip etib o'rni-dan turdi-da, erining qo'lidagilarni oldi.

– Ko'chani qara, bay-bay, odam sig'maydi.
– Mirsalim darrov hovuridan tushib, qor in-gan telpagini avaylabgina qoqdi-yu, xotiniga tutqazdi. – Do'konga kirib qolsang, surib olib ketishadi.

Ayiqdek lapanglab borib chiroyli bezatil-gan dasturxon yoniga cho'kdi.

– O'g'ling qani, ko'rinmaydi?

Ichkari uydan uzuq-yuluq ovoz keldi.

– Bir ish bilan jo'natuvdim. Hali-zamon ke-lib qoladi.

Erkak qo'llarini ishqalab, o'tirgan ko'yi de-razadan tashqariga mo'raladi.

– Shu sovuqda-ya? Zarilmidi? Biror nar-sa kerak bo'lsa, menga aytganingda olib ke-lardim. Nima qilarding yosh bolani izg'irinda sarson qilib. Ertaga bir yeri shamollab qolma-sa go'rga edi!

Anchagacha jim qolishdi. U dasturxonni ko'zdan kechirar ekan, nimadir yodiga tush-gandek xotiniga yuzlandi.

– Bu yilgi bayram ham cho'ntakni xo'p qu-ritadigan bo'ldi-da, – dedi norozi qiyofada tamshanib. – Senam tilla uzuk olaman deb, shu pallaga tiqishtirishing shartmidi? Uyam bir dunyo pul bo'ldi. Hali bahor kelsa, olib be-raverardim.

– Bayramdagi sovg'a boshqa-da, baribir. Qolaversa, narigi uzugimni sottirib, pulini qo'shdim-ku!

– Ve, o'nta uzuk sendan aylansin. Bor-yo'g'i bitta tilla ekan-u! Sendan pul ayamayman, bilasan-ku! – dedi g'olibona. – Qaynoq choydan quy!

Tashqarida it ulidi. Sal narida allaqanday ayolning yosh bolaga gapirgani eshitildi.

Mirsalim qaddini rostlab, deraza tomonga qaragancha boshini sarak-sarak qildi.

– Mehmon chaqiruvmidin?

Munisa indamadi. Eshik ochilib, avval o'g'li Mirsodiq, ortidan qo'liga omonat tuguncha ko'tarib, yakka-yu yolg'iz singlisi Muxlisa kirib keldi.

Mirsalim unga endi e'tibor berdi. O'zgaribdi. Shuncha vaqt ichida ancha ozib, jikkakkin bo'lib qolibdi. Ungayam oson emas, o'rta-hol xonadonga tushgan. Ro'zg'or, bola-chaqa deb, o'ziga vaqt topolmayotgan, bechora. Shu onda xotini chaqirmaganda xayoliga ham kelmasligini o'ylab, o'zidan achchiqlandi. Qanaqa aka bo'ldi!..

Muxlisa kirgach uy to'lgandek bo'ldi. Dastlab Munisa bilan ko'rishdi-da, keyin anqayib turgan Mirsalimning bo'yniga osilib yig'lab yubordi.

– Aka, yaxshimisiz? Rosa sog'indim. Kelsam, doim yo'q bo'lasiz. Sovg'angiz uchun rahmat, qimmat ekan deb, ololmay yurgandim.

Uning chillakdek ingichka barmog'ida nimadir yarqiradi. Mirsalim singlisining yelkasi osha Munisaga qaradi-yu, yuragi entikib ketdi...

JAZO

Kuzning daydi shamoli tashqaridagi jon-sarak teraklarni baravar silkidi. O'limtik yaproqlar o'z soyasida katta bo'lgan poya ostiga ma'yus to'shaldi.

Deraza tirqishidan kirgan yelvizak uning silliq sochlarini to'zg'itib yubordi. Ammo Sodiqov bunga parvo ham qilmay o'tkir nigohlari bilan hamon hissiz tikilib turardi.

– O'g'lim, sendan kutmagandim... – dedi qarshisidagi huquq o'qituvchisi quruqshagan lablarini arang qimirlatib.

Sodiqov lom-mim demadi. Sertuk qoshlarini chimirgancha qilgan ishidan mamnun bo'lib, bilinar-bilinmas jilmayib qo'ydi.

Tag'in shamol turdi. Stol ustidagi pullar har tomonga uchib tushdi.

– Nega bunday qilding? – dedi o‘qituvchi iztirob bilan. Ammo bu gal uning so‘zlarida titroq bor edi. – Sening harbiy bo‘lishingda ko‘p hissam bor edi-ku!..

– Buning uchun sizdan minnatdorman, – Sodiqov ustozidan ko‘zini olib qochdi. – Jamiyatga foydang tegsin, kim bo‘lsang ham, xalq xizmatida bo‘l, derdingiz. Hamma gaplaringiz qulog‘im ostida jaranglaydi. Balki, o‘shanda mendan oddiy baho uchun pora talab qilmaganingizda boshqa kasbni tanlardim. Endi esa mening birinchi ishim ham siz bilan boshlandi. Saboq uchun rahmat, ustoz!

Kuzning daydi shamoli tashqaridagi jon-sarak teraklarni baravar silkidi. O‘limtik yap-roqlar o‘z soyasida katta bo‘lgan poya ostiga ma’yus to‘shaldi...



MUNDARIJA

Nabi Jaloliddin. Ufq yo'lining yo'lchisi.....	3
Ufqqa tutash yo'l.....	5
Yordam.....	12
Umidchiroq.....	31
Halol.....	39
Sovg'a.....	41
Jazo.....	45

UO'K: 821.512.133-32(081)

KBK: 83.3(50'zb)

E 74

E 74 Ergashaliyev, Shahzod.

Ufqqa tutash yo'l [matn]: *Hikoyalar* / Sh.Ergashaliyev.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 48 b.

Adabiy-badiiy nashr

SHAHZOD ERGASHALIYEV

UFQQA TUTASH YO'L

Hikoyalar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,5.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №377.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



SHAHZOD ERGASHALIYEV

UFOQA TUTASH YO'L

Shahzod Ergashaliyev
1999-yil 2-aprelda Namangan viloyati
Chust tumanidagi Olmos
shaharchasida tug'ilgan. 2017-yilda
Namangan davlat universitetining
matematika yo'nalishiga o'qishga
qabul qilingan. Hikoyalari matbuotda
e'lon qilib kelinmoqda. 2020-yilda
onlayn tarzda o'tkazilgan Respublika
yosh ijodkorlarining Zomin seminari
ishtirokchisi.

"ADABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6780-7-1



9 789943 678071